

Mart, 2025-Yil

TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA
TARAQQIYOTI

Mehridin Yunusovich Haqqulov

mexriddinhaqqulov@gmail.com

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi

mohlaroyimyarashova@gmail.com

Yuldosheva Feruza Yashin qizi

yuldoshevaftarix@gmail.com

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filiologiya” kafedrasi o'qituvchilari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14984492>

Annotatsiya. Tarixiy tadqiqotlarning asosini insoniyat jamiyatining taraqqiyoti asosidagi faktik ma'lumotlar tashkil qilsa, kartografiya tarixi uchun esa karta va geografik ilmlar asosiy manba bo'lib xizmat qoldi. Karta bosib chiqarishgacha bo'lgan davrdagi ko'plab qadimgi kartalar turli sabablar, ya'ni yong'inlar, namgarchilik va materialining to'zib ketishi natijasida bizgacha yetib kelmagan. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida kartografiyaning o'rni xaqida aniq bir fikr mavjud emas. Ba'zilar uni texnik fanlar qatoriga qo'shsalar, ba'zilar esa aniq fanlar qatoriga, yana ba'zilar kartografiya geodeziyaning bir qismi deb qarasarlar, boshqalar informatikaning bir bo'limi deyishadi. Boshqa toifa esa uni geografik fan deb biladi.

Tayanch so'zlar: Karta, Antik davr, Rim imperiyasi, Uyg'onish davrida, tabula, mappa, mappa mundi, Kartografiya, Frits Redinger, Shveysariya, Klavdiy Ptolemey, Platon, Pifagor, Sparta podshosi Kleomon, N.I.Pavlishev, P.I.Keppen, Zobit atlasi, Dengiz atlasi.

Abstract. While historical research is based on factual information on the development of human society, maps and geographical sciences serve as the main sources for the history of cartography. Many ancient maps from the era before map printing have not reached us due to various reasons, namely fires, dampness, and deterioration of their material. There is no clear opinion in modern scientific literature about the place of cartography. Some include it in the list of technical sciences, others in the list of exact sciences, and still others consider cartography as a part of geodesy, while others say that it is a branch of computer science. Another category considers it a geographical science.

Keywords: Map, Antiquity, Roman Empire, Renaissance, tabula, mappa, mappa mundi, Cartography, Fritz Redinger, Switzerland, Claudius Ptolemy, Plato, Pythagoras, King Cleomon of Sparta, N.I. Pavlishev, P.I. Koppen, Officer's Atlas, Marine Atlas.

Аннотация. Исторические исследования базируются на фактической информации, основанной на развитии человеческого общества, а для истории картографии основным источником служат карты и географические науки. Многие древние карты эпохи до картографической печати не дошли до нас по разным причинам: пожары, покраска, износ материала. В современной научной литературе нет четкого представления о роли картографии. Кто-то считает ее частью технических наук, кто-то частью точных наук, кто-то считает картографию частью геодезии, кто-то считает, что это часть информатики. Другая категория считает это географической наукой.

Ключевые слова: Карта, Античность, Римская империя, Возрождение, *tabula, тарра, тарра мунди, Картография, Фриц Редингер, Швейцария, Клавдий Птолемей, Платон, Пифагор, Клеомон, царь Спарты, Н.И. Павлишев, П.И. Кенпен, Офицерский атлас, Морской атлас.*

Karta - bu tarixiy hujjat bo'lib, voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, sodir bo'lgan voqealar, vayron bo'lgan va yana tiklangan shaharlar, daryo o'zanlarining o'zgarishi, unutilgan qadimgi sug'orish inshootlari, xalqlar tarixini hududlar bilan bog'lab o'rganadi. Antik davrda kartalar uchun maxsus atama bo'lmagan. Rim imperiyasida kartografik tasvirlarni tabula (doska) deb atashgan. Keyinroq ilk o'rta asrlarda karta lotincha „mappa“ (dasdab polotno qismi yoki dastro'mol ma'nosini anglatgan), "mappa mundi" shaklida esa (dunyo kartasi) o'sha davrda Yerning barcha kartalariga nisbatan qo'llanilgan. Kartografik tasvirlarga nisbatan „karta“ so'zining qo'llanilishi Uyg'onish davrida lotinchadan „charta“ (varaqlar, qog'oz) so'zidan, o'z navbatida u qadimgi yunon tilidagi „xartes“ (papiirusdan tayyorlangan qog'oz) so'zidan olingan

Bu so'z ilk bor Portugaliyadagi XIV asr kartalarida uchraydi. Karta so'zi aslida lotincha „chartes“ — xartes so'zidan olingan bo'lib, yozuv uchun mo'ljallangan papiirus varag'i degan ma'noni bildiradi. Zamonaviy kartalar mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1. Umumgeografik kartalar (gidrografiya, rel'ef, sanoat, siyosiy- ma'muriy bo'linishlarni o'z ichiga oladi). 2. Maxsus kartalar. Maxsus ma'lumotlar keltirilgan (masalan, iqtisodiy) kartalar. Masshtabiga ko'ra esa kartalar uch guruhga bo'linadi: 1. Yirik masshtabdagi kartalar: 1:200000 va undan yirik. 2. O'rta masshtabdagi kartalar: 1:300000 dan 1:1000000 gacha. 3. Kichik masshtabdagi kartalar: 1:1000000 dan kichik. Hozirgi zamon kartalarida quyidagi element (unsur)lar mavjud: 1. Gidrografiya: suv inshootlari (dengiz, daryo, ko'l, kanal, sun'iy suv omborlari, buloqlar, quduqlar) ni o'z ichiga oladi. 2. Aholi punktlari: shahar, shahar tipidagi posyolka, qishloq aholi maskanlari kiradi.

Mart, 2025-Yil

3. Aloqa yo'llari: temir yo'llar, yo'llar, suv yo'li (dengiz va daryo), havo yo'llari. 4. Sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy madaniy ob'ektlar: sanoat korxonalari, foydali qazilmalar, aerodromlar, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy, tarixiy ob'ektlar kiradi. 5. Relief: pasttekisliklar. 6. Siyosiy-ma'muriy chegaralar: davlat va ma'muriy birliklarning chegaralari mavjud. Kartografiya ancha kengroq tushuncha bo'lib, u tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning o'zaro bog'Uqligini (ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini) kartografik tasvir, tasvirli belgilar vositasi bilan tasvirlashni va tadqiq qilishni o'rganuvchi fandir. U dastlab ovchilik va baliqchilik keng tarqalgan hududlarda shakllangan. Kartografiya qadimgi fanlardan bo'lib, bu fan to'g'risidagi dastlabki ta'rifni („kartografiya" atamasisiz) mdodiy II asrda yunon olimi Klavdiy Ptolemey bergan. "Kartografiya" atamasi dastlab XVI asrda uchrab, geografik kartalar ishlashning ilmiy va amaliy sohalarida qo'llanilmagan. Kartografiyaning taraqqiyotini avvalo insoniyatning jamiyatdagi moddiy ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi bdan bog'lash to'g'riroq. Bu taraqqiyotni ma'lum ijtimoiy sharoitlardan, tabiat va yer munosabatlaridan tashqarida tushunish noto'g'ridir.

Nima bo'lganda ham uning aniq mohiyatini tarixiy tahlilsiz anglab yetish mushkul.

Ibtidoiy jamoa davridanoq qadimgi odamlar ilk kartalarni yaratishgan. Masalan, geograf Frits Redinger „Shveysariyadagi tarixdan avvalgi kartografik rasmlar" nomli asarida Shveysariyadagi g'orlardan topdgan ikkita suyak plastinkani o'rganish natijasida, plastinkalardagi tasvirlar o'sha joyga oid asosiy yo'llar kartasi ekanligiga amin bo'lgan. Qadimgi tarixiy kartografiyaga oid ilmiy adabiyotlarda karta va kartografiyaning shakllangan davri haqida aniq va to'la javob yo'q. Ma'lumki, bizgacha yetib kelgan kartografik tasvirlar miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oiddir. Ular orasida Shimoliy Italiyaning Kamonika vodiysidan topilgan bronza davri (mdoddan avvalgi II ming yillik o'rtalari)ga oid kartografik tasvirlarda dalalar, so'qmoqlar, irmoqlar va sug'orish inshootlari aks ettirilgan. Qadimgi karta-tasvirlar loy taxtachalar, papirus va pergamentlarga chizilgan bo'lib, bizgacha boy tarixiy ma'lumotlarni olib kelgan. Miloddan avvalgi 2300 yillarda qadimgi bobilliklar ilk ibtidoiy kartalarni chizganlar. Unda yerning ba'zi qismlari o'z aksini topgan edi.

Shuningdek, kartalar yaratish boy madaniyatli qadimgi xalqlar — ossuriyaliklar, misrliklar va finikiyaliklarda eramizdan bir necha ming yil avval shakllangan.

Yerning shar shaklida ekanligi qayd etilgan sanani ko'plab olimlar asrlar mobaynida o'rganishib, uni miloddan avvalgi V asrda yashagan faylasuf Parmenid nomi bilan bog'lab kelishdi. XIX asrda tarixchi va geograf olimlar Yerning shar shaklida ekanligi haqida g'oya Pifagorga (miloddan avvallgi VI asr) tegishli deb da'vo qilishardi. XX asrda esa bir qator G'arb tadqiqotchilari — Gyutri, Xeydel, Tomson va boshqalar yangi g'oya miloddan avvalgi V asrdan

Mart, 2025-Yil

erta paydo bo'lmaganligi va u haqdagi ishoralar Platonning (miloddan avvalgi 427-347 yillar) "Fedon" dialogida uchrashini ta'kidlaganlar. Ammo XX asrdagi ba'zi tadqiqotlarda bu g'oyani yana „qadimiyroqqa“ — Pifagor davrigacha surishga urinishlarni kuzati-shimiz mumkin. Antik manbalarda qadimgi yunon kartalari haqida bir qator ma'lumotlar uchraydi. Gerodotning yozishicha, Milet hukmdori Aristogorning Sparta podshosi Kleomon bilan muloqoti chog'ida uning qo'lida mis doskali karta bo'lib, unda butun yer kurrasi, "hamma dengiz va daryolar" aks etgan. Shuni unutmash kerakki, antik davrning yirik tarixchilarining ko'pchiligi geograf, shuning bilan birga kartograf bo'lishgan. Ular orasida Evdoks, Dikearx, Efor, Eratosfen, Pompeniy Mel, Ptolemeylar alohida o'rin egallaydi. Quldorlik tuzumi davrida karta tuzish ancha rivojlandi.

Kartografiyaning ilmiy manbalari antik Yunonistonda shakllandi. Yunonlar Yerning shar shaklida ekanligini va uning hajmini aniqlashga uringanlar. Ular tomonidan kartografik proyeksiyalar va meridian-parallellar to'ri ishlab chiqilgan. Bunda ular Yerning shar shaklida ekanligini hisobga olganlar. Tarixchi Gerodot o'z davrida (miloddan avvalgi 484-425 yillar) Yerning tasviri haqida yozib qoldirgan bo'lsada, antik geografiya Klavdiy Ptolemey (milodiy 90-168 yillar) asarlarida kengroq tahlil qilingan. Uning 8 kitobdan iborat „Geografiyadan qo'llanma“ asari kartografiya ilmida qariyb 14 asr mobaynida yirik manba bo'lib xizmat qildi. U qisqacha „Geografiya“ deb atalib, 8 ta kitobdan oltitasida Yerning tasviri bayon etilgan. Qadimgi Rimda kartalar harbiy va ma'muriy maqsadlar uchun amaliyotda keng qo'llanilgan. Rimning iqtisodiy va siyosiy hayoti olis viloyatlar va qo'shni mamlakatlarning transport aloqalariga bog'liq bo'lgan.

Rim imperiyasini bog'lab turgan yo'llar tarmog'i o'lchab chiqilgan, so'ngra esa ularning kartalari tayyorlangan. Rimdagi kartografiya asosan ikki yo'nalishda rivojlangan. Birinchisi — yunon kartografiyasi an'analarini davom ettirgan bo'lib, yunonlar, ayniqsa, Klavdiy Ptolemey tadqiqotlari asosida, ikkinchisi aynan Rim yo'nalishi, ya'ni amaliy muhandislik asosida taraqqiy etdi. Ta'kidlash joizki, rimliklar muhandislik geodeziyasi asoslarini yer o'lchash ishlari vositasida olib borishdi. Rim kartografiyasi ana shunisi bilan ham muhim va o'ziga xosdir. Rimda kartografiya ishlari bilan yer o'lchovchilar (agrimensorob) shug'ullanib, milodiy birinchi asrlarda agrimensor bir vaqtning o'zida ham kohin, ham harbiy va geometr bo'lib, Senat va xalq ularga katta vakolatlarni bergan. Agrimensorlar o'ziga xos an'ana hamda qoidalar asosida faoliyat ko'rsatgan. Ular Rimda ijtimoiy xizmat vakillari sanalib, imperatorlar ularning faoliyatini yuqori baholaganlar. Hatto huquqshunos va notiqlardan tashqari yer o'lchovchilar ham professor unvoniga sazovor bo'lishgan hamda har xil majburiyatlardan ozod etilgan. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki, Rimda yer o'lchash va uni kartalarga tushirish san'at darajasiga ko'tarilgan.

Mart, 2025-Yil

O'z amaliga ko'ra rimlik yer o'lchovchilar turli xil nomlarga ega bo'lishgan: terminorum custodes — chegaralar qo'riqchisi, mensores — o'lchovchidar, agrimensores-mensores-yer o'lchovchilar. Rimda ushbu kasb egalarining maxsus maktablari va qadimgi geodezik asboblari mavjud bo'lgan. Dastlab tarixiy kartalar Abraxam Orteliyning „Qadimgi dunyo geografiyasi atlaslari“ (1579 yil)ga kiritilgan. So'ngra Sansonlar, V.Dyuval (XVII asrning ikkinchi yarmi) atlaslarida tarixiy bo'limlar paydo bo'ldi. XVIII asrda esa J.B.D'Anvilning tarixiy kartalari chop etildi. XIX-XX asrlarda bir qator G'arb mamlakatlarida milliy tarixiy atlaslar chop etildi. Ularda aholining joylashuvi, ma'muriy-siyosiybo'linishlar, shuningdek, iqtisodiy va madaniy tarixga oid kartalar mavjud edi (AQSh, Fransiya, Finlandiya). Tarixiy atlaslar Chexoslovakiya va Bolgariyada ham nashr etilgan. Rossiyada tarixiy kartalar XVIII asrning birinchi choragida, aniqrog'i, 1700-1721-yillardagi Shimoliy urushda rus harbiy qo'shirdarining janglariga bag'ishlangan plan, karta, sxema va ularning sharhiga bag'ishlangan matnlarning 1713-yildan chop etilishi bilan boshlangan.

Keyinroq qo'lda chizilgan harbiy-tarixiy kartalar juda ko'plab tarqalib, ular quruqlik va dengizda olib borilgan janglarda erishilgan g'alabalarga bag'ishlandi. 1793-yilda ilk bor «Rossiya imperiyasining tarixiy kartalari» nashrdan chiqdi. XIX-XX asr boshlarida atlas va alohida kartalar chop etilib, ularda siyosiy, harbiy va iqtisodiy jarayonlar o'z aksini topdi. Ular jumlasiga „I.Axmatovning Rossiya davlatining Karamzin tarixiy asarlariga asoslanib tuzilgan tarixiy, xronologik va geografik atlaslari“ (I-II qismlar, 1829-1831 yillar), N.I.Pavlishevning „Rossiya tarixiy atlaslari“ (1845 yd), Y.Y.Zamislovskiyning „Rus tarixiga oid o'quv atlaslari“ (1865 va 1887 ydlar) va A.Jinning 1868 yilda chop etilgan „Rus tarixi bo'yicha o'rta va quyi o'quv muassasalari uchun o'quv atlaslari“ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Rossiya imperiyasida iqtisodiy va xo'jalik masalalarini qamrab olgan karta va atlaslar Ichki ishlar vazirligining aholini ro'yxatga olish boshqarmasi, Savdo vazirligi va boshqa muassasalar tomonidan muntazam nashr etilib borilgan. Etnografik tarixga doir kartalar 1851 yilda P.I.Keppen va 1895 yilda A.F.Rittix tomonidan tayyorlanib, chop etilgan. Rossiya imperiyasida nashr etilgan harbiy-tarixiy kartalar amaliyahamiyatga ega bo'lib, ular 1799, 1805-1815, 1828-1829, 1853-1856, 1877-1878 va 1904-1905 yillarda chor qo'shirdari o'z borgan yirik harbiy urushlarni, shu bilan birga chegaralar hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan harbiy harakatlarni ham tavsiflovchi kartalar sifatida baholanishi mumkin. Hozirgi zamon tarixiy kartalari faqatgina tarixiy voqea va hodisalar va dalildarnigina aks ettirib qolmay, balki ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham tasvirlaydi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida K.V.Kudryashovning «Rus tarixiy atlaslari» (1928 yil), K.V.Bazdevich, I.A.Golubsov va M.A.Zinovyevlarning «SSSR tarixi atlaslari» (1-3 qismlar, 1948-1950 yillar) va boshqa yirik tarixiy atlaslar yaratilgan.

Mart, 2025-Yil

Ikkinchi jahon urushidan so'ng sobiq sho'rolar tuzumi ostidagi ittifoqdosh respublikalarda ham nashr etilgan atlaslarda tarixiy kartalar mavjud edi. Harbiy tarixiy voqealarga doir kartalar L.G.Beskrovniyning „Rus harbiy tarixiga oid karta va sxemalar atlası" (1946-yil), „Zobit atlası" (1947-yil), „Dengiz atlası" (3 jild, 1958-yil)da o'z aksini topgan.

Xulosa

Tarixiy kartalar, asosan, o'tmishdagi voqea va hodisalarni tasvirlab, jamiyat tarixidagi muhim voqealarning geografiya bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Tarixiy kartalar qadimgi madaniyat o'choqlari, davlatlar, ijtimoiy harakatlar, savdo yo'llari va hokazolarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Tarixiy kartalar arxeologik, etnografik, tarixiy-iqtisodiy, siyosiy-tarixiy, harbiy-tarixiy va tarixiy-madaniy kartalarga bo'linadi. Bu tarmoqlar orasida tarixiy kartalar umumiy ham bo'lib, tarixiy jarayonlarni bir butunlikda tasvirlaydi. Alohida hollarda esa voqea va hodisalar yoki fakt (dalil)larning alohida tomonlarini ko'rsatadi. Ular mustaqil (ma'lumot beruvchi va o'quv kartalari hamda atlaslar) yoki bezakli ahamiyatga ega bo'lgan kartalarga bo'linishi mumkin.

REFERENCES

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
4. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO 'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
5. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
7. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.

Mart, 2025-Yil

8. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
9. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
10. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
11. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING “AL-JOME’AS SAHIH” ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
12. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
13. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
14. Ярашова, М. . (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
15. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛИЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
16. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta’limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta’lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
17. Yarashova, M. (2024). ILK O’RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG’LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
18. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>

Mart, 2025-Yil

19. Yarashova, M., Sa'dullayev, U., & Yo'ldosheva, F. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN'ANAVIY BOSH KIYIMLARI- DO'PPI VA RO'MOL. *Modern Science and Research*, 4(1), 600–607. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64116>
20. Yarashova , M. ., & Sultonova, M. (2025). BUXORO VOHASI DAFN MAROSIMI KIYIMLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ IRIM-SIRIMLAR. *Modern Science and Research*, 4(1), 352–358. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63674>
21. Yarashova, M. (2025). EDVARD TAYLOR –ETNOLOGIYADA EVOLYUTIONISTIK MAKTAB ASOSCHISI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1005–1012. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68483>
22. Yuldosheva, F. . (2024). MIRZO ULUG'BEK KUTUBXONASI VA BUGUNGI TAQDIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 741–749. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/-research/article/view/58564>
23. Yuldosheva , F. . (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(11), 788–791. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48058>
24. Yuldosheva , F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING “QADIMGI TURKLAR” ASARIDA KO'KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338–342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php//article/view/3908>
25. Yuldosheva , F. . (2025). MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – MILLATNING O'Z TAQDIRINI ANGLASHIDA YORQIN YULDUZ VA MILLIY UYG'ONISH DAVRINING RAMZI. *Modern Science and Research*, 4(1), 420–427. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60832>
26. Yuldosheva, F. & Abdihamidova , F. . (2025). BEHBUDIYNI KIM O'LDIRGAN?. *Modern Science and Research*, 4(1), 359–366. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63681>
27. Yuldosheva, F. . (2025). IBN BATTUTANING “SAYOHATNOMA” ASARI MUHIM MANBA SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 4(2), 573–580. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/66954>

Mart, 2025-Yil

28. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
29. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
30. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
31. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
32. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
33. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
34. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In *Психология образования будущего: От традиций к инновациям* (pp. 112-114).
35. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(10), 49-51.
36. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
37. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
38. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>

Mart, 2025-Yil

39. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
40. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
41. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
42. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
43. Gulyamov, A. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 1020-1028.
44. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
45. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
46. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
47. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
48. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
49. Obid o'g'li, B. O., & Zaynievich, O. M. (2024). BUXORO VA JUNG'OR XONLIKLARI O'RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI.
50. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
51. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.

Mart, 2025-Yil

52. Sadullayev U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(4), 376–385.
53. Sadullaev U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(5), 344–352.
54. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(6), 238–241.
55. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
56. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
57. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 366-375.
58. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(8), 160-172.
59. Rahmonova, S. S. Q. (2024). O 'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR DINAMIKASI VA ASOSIY YO 'NALISHLARI. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 95-104.
60. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14503228>
61. Nozimov, J. T. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578.